

TO'RA KO'LI – G'UZOR TARIXINING BIR QISMI

Meyliqulova Umida Maxmadiyor qizi

Qarshi Davlat Universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sobiq sovet ittifoqi davrida olib borilgan noto'g'ri siyosat tufayli bitta ko'lining yo'q bo'lib ketishi, ekologiyaga salbiy ta'siri va ko'l atrofida joylashgan Yalpoqtepa va Qo'shtepa arxeologik yodgorliklari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *G'uzor, To'ra ko'li, Yalpoqtepa, Qo'shtepa, Aparadi, Mulki huri xolis, To'ra oromgohi, masjid.*

Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani o'zining boy tarixi, tabiati o'ziga xos urf-odatlar bilan ajralib turadi. Mazkur hududda joylashgan Qo'shtepa qishlog'i ham o'zining boy qadimiy tarixi hamda noyob tabiati bilan maqtana oladi. Ammo o'tgan asrda olib borilgan noto'g'ri siyosat, nafaqat odamlarni, balki, noyob tabiatga ega bo'lgan ko'lni ham chetlab o'tmadi. Ma'lumki bahor faslida daryolarda sel hodisasi kuzatiladi. Bu hodisa G'uzor daryosiga ham begona emas. Sel vaqtida daryo o'zanidan chiqib sel suvi hozirgi Qo'shtepa va Aparadi qishloqlari o'rtasidagi pastqam joyda yig'ilib, kichik ko'lni hosil qilgan. Ko'lning o'rni qizil tuproq bo'lganligi sababli suv uzoq vaqt saqlanib, o'ziga xos chiroyli joyga aylangan. G'uzor bekligida uzoq vaqt hukumronlik qilgan Said Akramxon bu joyga e'tibor qaratib, obod maskanga aylantirgan. Kichik ko'lga G'uzor daryosidan maxsus ariq qazdirilib doimiy suv kelishi ta'minlangan. Natijada, ko'l hajmi kengayib, 320 gektar maydonni tashkil etgan. Tabiati o'zgargan ko'lni to'liq qamish qoplagan, ba'zi yerlarda suvning chuqurligi 5-6 metrni tashkil etgan. Bu ko'lga G'uzor To'rasi e'tibor qaratganligi uchun mahalliy aholi tomonidan "To'ra ko'li" nomi berilgan [1:74]. Ko'lni turli hayvonlar va qushlar o'ziga makon qilgan. Bir tomondan, ko'l havosi yoz oylarida Qo'shtepa qishlog'ida mo'tadil iqlim sharoitini vujudga keltirgan. Ko'l atrofida To'ra oromgohi va masjidi bir qancha yordamchi binolar qurilgan. Qishloqning janubiy qismida G'uzor To'rasining 15 gektardan iborat "Mulki huri xolis" yeri bo'lgan. Bu yerni nazorat qilish mahalliy aholiga yuklatilgan. 1920-yil 1-sentabr kuni Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze (1885-1925yillar) qo'l ostidagi qizil armiya qo'shinlari G'uzorni jangsiz ishg'ol qiladi. G'uzor to'rasi oila a'zolari bilan Afg'onistonga qochib ketadi. 1920-yil 30-avgust kuni G'uzorning so'nggi to'rasi Mubinxon Amudaryodan Afg'onistonga o'tib ketgan [6].

1920- yildan keyin xalq "To'ra ko'li", "Katta ko'l" deb atalgan ko'l qarovsiz qolib maydoni kichrayib ketadi. 1930-yillarda qishloqda "M.V.Frunze" nomli kolxoz tuzilgach, ko'lning qurib qolgan qismi qamishlardan tozalanib o'rniga qishloq ekinlari ekila boshlangan. Shu tariqa uzoq vaqt mavjud bo'lgan ko'ldan faqatgina nom qolgan, xolos. 1970-yillarda ko'l o'rnida paxta ekinlari sho'rni yuvish uchun zovur qaziladi. 1980-yillarning oxirida boshlab ko'l hududi aholiga bo'lib berila boshlangan [1:75].

Ko'l atrofida hozirgi Qo'shtepa qishlog'ida G'uzor tumanidagi eng qadimgi mashhur qa'la Yalpoqtepa joylashgan. Bu qa'la milodiy I asrda yoki taxminan miloddan avvalgi asrlarda paydo bo'lgan bo'lishi mumkin [1:17]. Tadqiqotchi olim Sh. S. Kamoliddinov Yalpoqtepa tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan. Qa'lani 2000 yilliklardan avvalroq paydo bo'lgan G'uzor shahrining eng qadimgi o'rni deb ko'rsatadi [5]. Yalpoqtepa xarobalari ko'plab arxeologlarni hozirgi kungacha qiziqtirib keladi. O'zbekiston Respublikasi bilimlar jamiyati va Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti bilan birgalikda 2005-yilda bir guruh o'zbek arxeologlari Turkiya jumhuriyatining Istanbul institutining Ibrohim Cheshmeli boshchiligidagi madaniyat xodimlari va arxeologlari bilan birgalikda Yalpoqtepada arxeologik qazish ishlarini olib bordilar. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida I-II asrlarga tegishli ko'plab arxeologik buyumlar o'rganildi [1:17] va " O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati G'uzor vohasidagi 2005 yilgi qazishmalari" maqolasi e'lon qilindi [2:45-46]. Yalpoqtepada olib borilgan ushbu tadqiqot ishlarida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Abdusobir Raimqulov ham o'zining munosib hissasini qo'shgan [1:17]. Abdusobir Raimqulovning fikricha, Yalpoqtepadan olingan ma'lumotlar G'uzorning uzoq o'tmishi tarixidan juda boy ma'lumotlar bera oladi [3].

Qo'shtepa qa'lasini qadimgi zardushtiylik dini hukm surgan paytlarda paydo bo'lgan. Bunga misol uchun 1978 yilda Qo'shtepa qishlog'i yonida paxta maydonlarini sug'orish uchun zavur qazilayotgan paytda ekskavator cho'michida katta xum chiqadi. Ochib o'rganilganda xum ichida mumiyolangan, taqinchoqlar, taqilgan, yaxshi kiyim kiygan qiz jasi bo'lgan. Oradan 10 soniya vaqt o'tgach, toza havo tegishi natijasida qiz jasi changga aylanib ko'zdan g'oyib bo'lgan. Bu narsa noyob uchraydigan tarixiy hodisa bo'lib, qala'ni nechog'lik qadimiy ekanligidan dalolat beradi [1:16]. Bevosita qishloqning o'zi haqida ushbu satrlar orqali qishloqning o'tmishdagi kundalik hayoti haqida bilib olishimiz mumkin:

Qo'shtepalik ekar ekan sholini

Qiyib tortar ekan polini [8]

Xulosa qilib aytish mumkinki, To'ra ko'lining yo'q bo'lib ketishi, Yalpoqtepa va Qo'shtepa yodgorliklarining xaroba holga kelib qolishi bizni hushyorlikka chorlaydi. G'uzor tumaning ko'p yillik tarixini o'rganish, madaniy meros obyektlarni ta'mirlash, urf-odatlarini tiklash tuman tarixini yoritishdan tashqari, zamonaviy turizmni rivojlantirishga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev A. G'uzor tarixi. Toshkent; 2022-yil.
2. Cheshmeli I. O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida 2005-yil arxeologik qazuv ishlari//Arxeologiya va sa'nat. N: 123 son. Istanbul, 2006 yil.
3. Raimqulov A. Arxeologik qazuv ishlari va tadqiqot natijalari.

4. Sh.S.Kamoliddinov tadqiqot natijalar.
5. Saidov M. G'uzor tarixi sarhadlarida. Qarshi; 2003-yil.
6. Xoliqulov A. B. "XIX - XX asr boshlarida Buxoro amirligining sharqiy beklilari" mavzusidagi dissertatsiya. Toshkent; 2008-yil.
7. Nuriddinov X. "G'uzornoma". Toshkent; 2011-yil.
8. Dala yozuvlari, Munavvar momodan yozib olindi, 2023-yil 17-sentabr.